O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

"Tasdiqlandi"
O`quv ishlari bo`yicha prorektor
_____ M.Daminov
2020 yil "__" __ avgust

KORXONA IQTISODIYOTI

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 200000 – Ijtimoiy fanlar, iqtisod va huquq
Ta`lim sohasi: 230000 – Iqtisod va biznes
Ta`lim yo`nalishi: 5230100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo`yicha)

Buxoro – 2020

Fan dasturi Buxoro davlat universiteti O‘quv uslubiy kengashining 2020 yil “ ” dagi “ ” - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi:

Rahmatullayeva F.M. – “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

M. Oripov – BuxDU “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti

N. Ziyavitdinova – Buxoro muhandislik-texnologiya instituti dotsenti (*turdosh OTM)*

Fan dasturi BuxDU Iqtisodiyot kafedrasi yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2020 yil “11” 08 dagi “1”- sonli bayonnomasi).

I. Oquv fanning dolzarbligi va oliy kasbiy ta’limdagi o’rni

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida islohotlarni chuqurlashtirish iqtisodiyotga kiritilgan yangi investitsiyalar va mavjud moddiy-texnika asosini modernizatsiya qilishdan tashqari boshqaruvning demokratik tamoyillarini kuchaytirish, korxona, firma va ularga tenglashtirilgan ishlab chiqarish tuzilmalarining xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq mustaqillik doirasini kengaytirish, siyosatning iqtisodiyotdan ustunligiga barham berish, inson faoliyatining barcha soha va tarmoqlarida tashabbuskorlik, izlanish va hokazolarning rivojlanishi ham keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Korxona - milliy iqtisodiyotning asosiy ishlab chiqarish bo‘g‘inidir. Demak, korxona iqtisodiyoti asoslarini bilish malakali mutaxssislar tayyorlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Bu fan mutaxassislarda korxona iqtisodiyotining asosiy sohalari bo‘yicha tayanch bilimlarini shakllantiradi.

Ushbu fan talabalarda zarur aniq iqtisodiy bilimlarni shakllashtirishga qaratilgan bo‘lib, bu bozor munosabatlari va iqtisodiy ishlarni markazi hozirgi kunda birlamchi bo‘g‘in korxona iqtisodiyoti darajasiga ko‘tarilgan sharoitlarda juda muhim hisoblanadi.

II. O’quv fanining maqsad va vazifalari

“Korxona iqtisodiyoti” fanini o’qitishdan maqsad – talabalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarni ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishdagi va milliy iqtisodiyotni ko’tarishdagi rolini va o’rnini aniqlash bo’yicha yo’nalish profiliga mos bilim, ko’nikma va malakani shakllantirishdir.

Fan o’z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

- ishlab chiqaruvchi korxonalar o’rtasida sog’lom raqobatni ta’minlashning o’ziga xos xususiyatlarini o’rganish;
- korxonada rejalashtirish texnologiyasining zamonaviy uslublari va amaliyotini o’rganish;
- korxona tuzilmasi va mazmunini belgilash;
- korxonada rejalashtirish uslublarini o’rganish;
- korxonani tashkil etish va tugatish mexanizmini o’rganish;
- korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini baholash uslubiyatini o’rganadi.

Shuningdek, “Korxona iqtisodiyoti” fani fundamental fanlardan biri bo’lib, boshqa iqtisodiy fanlarni chuqur o’rganishda asos bo’lib xizmat qiladi.

Fan bo`yicha talabalarning bilimiga, ko`nikma va malakasiga qo`yiladigan talablar

“Korxona iqtisodiyoti” o’quv fanini o’zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- bozor sharoitlarida korxona iqtisodiyoti;
- bozor infratuzilmasi va sanoat tarmoqlari iqtisodiyoti;
- korxona faoliyatining qonunchilik asoslari ***haqida tasavvurga ega bo’lishi;***

- korxonada investistiyalarni loyihalashtirish tamoyillarini;
- mehnatni tashkil qilish tizimini;
- korxonani iqtisodiyoti tashqi muhitini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- korxona iqtisodiyotini tashkil etish yo'llari;
- bozor infratuzilmasini rivojlanish yo'llari;
- bozorda korxona strategiyasini ishlab chiqish yo'llari va korxona iqtisodiyotini rivojlantirish samaradorligi;
- korxona iqtisodiyotini yuksaltirish yo'llari;
- korxonada mehnatni tashkil etish shakllari;
- talab va taklif muvozanatini tahlili hamda bashorat qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;***
- korxona iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan aniq takliflar ishlab chiqish;
- korxona faoliyatida hamkorlar bilan muzokaralar tashkil qilish va korxona faoliyatini yuksaltirish yo'llari;
- mintaqada bozor infratuzilmasini tahlil qilish;
- investistiya siyosatini samarali boshqarish va maslahat firmalarini yaratish ***malakalariga ega bo'lishi kerak.***

Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

"Korxona iqtisodiyoti" fani "Sanoat iqtisodiyoti", "Kapital qurilish iqtisodiyoti", "Sanoat mahsuloti sifati va raqobatbardoshligi", "Sanoatda ilmiy-texnika taraqqiyoti iqtisodiyoti", "Menejment" kabi bir qator ijtimoiy va iqtisodiy yo'nalishdagi fanlar bilan o'zaro bog'liq hamda uslubiy jihatdan uzviydir.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Bu fan bozor iqtisodiyoti va raqobatchilik sharoitlarida korxona faoliyatini amalga oshirishni ta'minlovchi zamonaviy iqtisodiy mexanizm, kadrlar potensiali va kadrlar siyosati, mehnatga haq to'lash, resurslar va ulardan foydalanish, ishlab chiqarishni rejalashtirish va prognozlashtirish, investitsion va innovatsion faoliyat, xarajat, daromad va rentabellik, bahoni shakllantirish, korxonaning tijorat siri va iqtisodiy xavfsizligi kabi hamma masalalarni qamrab oladi.

"Korxona iqtisodiyoti" fani ta'lim yo'nalishi fanlar blokining asosiy fanlaridan biri hisoblanadi.

Fanni o'qitishdagi yangi pedagogik va axborot texnologiyalari

Talabalarning "Korxona iqtisodiyoti" fanini o'zlashtirishlari uchun ilg'or va zamonaviy usullardan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir.

Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar va ma'ruza matnlari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalaniladi.

"Korxona iqtisodiyoti" fanining vazifalari va xususiyatlaridan kelib chiqib ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazishda "Aqliy hujum" va "Blits-so'rov" kabi usul va texnikalardan, seminar-amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda esa "Kichik

guruhlarga bo'linib ishlash" va "Davra suhbati" kabi usul va texnikalardan foydalaniladi.

III. Asosiy qism (ma'ruza)

1-mavzu. "Korxona iqtisodiyoti" kursining mazmuni va vazifasi

Davlat dasturiga kirgan ustuvor vazifalar va ularni amalga oshirishning iqtisodiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'grisida" gi Farmonidan kelib chiqqan holda fanning vazifalari. Iqtisodiyot jamiyat hayotining asosi sifatida. Iqtisodiy tizimlarning turli modellari. Iqtisodiyotni rivojlantirishning bozor modeli. Iqtisodiyot fan va ishlab chiqarish faoliyatining sohasi sifatida. Korxona iqtisodiyoti iqtisodiy fanning tarkibiy qismi va mustaqil bilimlar sohasi. Fanning o'rganish ob'ekti va predmeti. Fanni o'rganish uslubiyati va usullari. Fanning iqtisodiy nazariya va boshqa iqtisodiy fanlar bilan aloqasi. Fanni o'rganishning qonunchilik va me'yoriy-huquqiy asoslari. Fanni o'rganishda milliy va xorijiy adabiyotlar, ilg'or korxonalar yutuqlaridan foydalanish.

2-mavzu. Korxona - mustaqil xo'jalik faoliyatini yurituvchi bozor sub'ekti

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyotni rivojlanishi va aholi bandligini ta'minlashda korxonaning o'rni va roli. Zamonaviy korxonalar tasnifi. Korxonalarning birlashmalari. Korxonalarning mustiqilligi va mas'uliyati. Bozor munosabatlari sharoitida davlat va korxonalar o'rtasidagi munosabat. Korxonalarning erkinligi va cheklanishlar. Korxonaning ichki va tashqi muhiti. Korxonaning ishlab chiqarish va bozor munosabatlari (aloqalari). Raqobat sharoitida korxonalarning harakatlari (o'zini tutishi). Xo'jalik yuritishning zamonaviy bozor tizimi tomonidan korxona faoliyatiga qo'yiladigan talablar. Korxonaning jamiyat oldidagi ijtimoiy mas'uliyati.

3- mavzu. Korxonani tashkil etish va faoliyatini to'xtatish

Korxonani tashkil etishning huquqiy asoslari va tamoyillari. Korxonani tashkil etish tartibi va bosqichlari. Korxonani tashkil etish uchun zaruriy ta'sis hujjatlari. Tashkil etilayotgan korxonani davlat ro'yxatidan o'tkazish. Korxona mulki va rekvizitlari. Yangidan tashkil etilayotgan korxona faoliyatining boshlanishi va uning asosiy vazifalari. Korxonani qayta tashkil etish va faoliyatini to'xtatish. Korxonani qayta tashkil etish va tugatishning asosiy tamoyillari. Tugatish hay'ati va uning vazifalari.

4-mavzu. Korxonani boshqarish

Boshqaruv korxona faoliyatidagi ob'ektiv zarurat. Boshqaruvning ob'ekti va sub'ekti. Boshqaruv munosabatlari. Boshqaruvning tashkiliy tuzilmalari. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida boshqaruvning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularning mas'uliyati korporativ boshqaruvning o'ziga xos jihatlari, uning ustunliklari va kamchiliklari.

Boshqaruvning asosiy funksiyalari. Boshqaruv xodimlarining kasb mahorati va kompetentligi. Boshqaruv tizimini ishlab chiqarishning samaradorligiga erishish va korxonaninng iqtisodiy barqarorligiga yo‘naltirish. Boshqaruv qarorlari samardorligini baholash.

5-mavzu. Korxona faoliyatini rejalashtirish va bashorat qilish

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida biznes-rejalashtirish korxonani boshqarishdagi muhim qurol sifatida. Rejalashtirishni bozor mexanizmlari bilan mos kelishi. Rejalashtirishning uslubiy asoslari. Korxonada rejalashtirish turlari. Rejalar tizimi - rejalashtirish natijalarini aks ettirish sifatida. Rejaviy qarorlarni tayyorlash davri: strategik muammolarni tahxlil qilish, korxona faoliyati kelgusi sharoitlarining prognozi, ishlab chiqarish topshiriqlarini va ularni amalga oshirish yo‘llarini (vositalarini) aniqlash. Joriy reja - korxona faoliyatining asosiy hujjati sifatida. Korxona faoliyatida biznes-reja. Biznes-rejani ishlab chiqarishdagi asosiy vazifalari va uning tartibi. Biznes-rejani korxonani rivojlantirish stragegiyasi bilan bog‘liqligi. Biznes-rejaning asosiy bo‘limlari va ko‘rsatkichlari.

6-mavzu. Ishlab chiqarishning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi

Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida samaradorlik korxona faoliyatining «oynasi» sifatida. Bozor munosobatlari sharoitda samaradorlikning o‘rni va ahamiyati. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘nalishida korxonaning faoliyati. Ishlab chiqarish samaradorligining mohiyati, mezonlari va ko‘rsatkichlari. Ishlab chiqarishning umumiy va solishtirma iqtisodiy samaradorligi. Xarajatlarning qoplanish davri - innovatsion yechimlarni, xarajatlar samaradorligining muhim ko‘rsatkichi sifatida. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosiy yo‘nalishlari.

7-mavzu. Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvati

Asosiy fondlarning mohiyati va ularning korxona faoliyatidagi o‘rni. Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish asosiy fondlari. Asosiy fondlar tuzlmasining ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri. Asosiy fondlarni baholash, eskirishi va ta’mirlash. Asosiy fondlar amortizatsiyasi va amortizatsiya ajratmalari. Amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullari. Asosiy fondlarni korxonaning ishlab chiqarish quvvati bilan aloqasi. Korxonaning asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish ko‘rsatkichlari, ularni hisoblash uslubi. Korxona asosiy fondlari va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishni yaxshilash yo‘llari.

8-mavzu. Korxonaning aylanma mablag‘lari

Aylanma mablag‘lar tushunchasi, ularning tarkibi va tuzilmasi. Korxona aylanma mablag‘larining asosiy vositalardan farqi. Bozor munosabatlari sharoitida aylanma mablag‘larni shakllantirish manbalari. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida aylanma mablag‘larni korxonaning iqtisodiy barqarorligigi ta’siri. Aylanma mablag‘larni me’yorlashtirish. Korxonaning aylanma mablag‘larga bo‘lgan talabini hisoblash. Korxonaning qarzga olingan va xususiy aylanma mablag‘lari. Korxonaning ishlab chiqarish zahiralari. Zahiralar turlari va ularni

hisoblash uslubi. Zahiralarni boshqarish va moddiy resurslarni tejash. Korxonada aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligi. Aylanma mablag‘lardan foydalanish ko‘rsatkichlarini va ularni hisoblash uslubi. Korxonaning aylanma mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish yo‘llari.

9-mavzu. Korxonada xodimlar, mehnatni tashkil etish va haq to‘lash

Xodimlar va ularning korxona faoliyatidagi o‘rni. Zamonaviy sharoitlarda korxonaning kadrlar siyosati. Korxona hodimlari, ularning tarkibi va tuzilmasi. Korxona xodimlari harakati va uni rejalashtirish. Ishchilar – korxona ishlab chiqarish personalining asosiy qismi. Korxonada mehnat unumdorligi va uni oshirish rezervlari. Korxonada mehnatga haq to‘lash. Mehnatga haq to‘lash shakllari va tizimlari. Mehnatga haq to‘lashning tarifsiz tizimi. Mehnatni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish. Kadrlar siyosati va mehnatga haq to‘lashni tashkil etishda korxonaning vakolatlari.

10-mavzu. Ishlab chiqarish harajatlari, foyda va rentabellik

Ishlab chiqarish xarajatlari, foyda va rentabellik tushunchalari. Mahsulot bahosi va tannarxi. Maxsulot tannarxini rejalashtirish va kalkulyasiyasi. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining tasnifi. Ishlab chiqarish xarajatlarini aniqlashning xorij tajribasi. Foyda korxona faoliyatining yakuniy natijasi sifatida. Foydaning ishlab chiqarish rentabelligi balan aloqasi. Korxonada rentabellikni aniqlash uslubi. Foydani maksimallashtirish. Baho va xarajatlar tarkibini o‘zgarishining foydaga ta’sirini tahlil qilish. Ishlab chiqarish retabelligini oshirish yo‘llari.

11-mavzu. Korxonaning investitsion faoliyati

Investitsion jarayon va investitsiyalar tasnifi. Korxonaning investitsion siyosati. Korxonaning investitsion «portfeli». Investitsiyalashning asosiy manbalari. Korxonaning ishlab chiqarish bazasini rivojlantirishga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Korxona darajasida investitsion loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish. Investitsion loyiha samaradorligini aniqlash uslublari va ko‘rsatkichlari. Tavakkalchilik omilini hisobga olgan holda investitsion loyihalar samaradorligini baholash xususiyatlari.

12-mavzu. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi va tijorat siri

Korxonaning iqtisodiy havfsizligini ta’minlashning maqsadi va vazifalari. Korxona xavfsizligi konsepsiyasi. Korxonani iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash tamoyillari. Korxona xavfsizligini ta’minlashni tashkil etish va boshqarish. Xavfsizlik xizmatining funksiyalari va uning tuzilmasi. Korxonaning tijorat siri. Korxona tijorat sirini himoya qilish samaradorligining korxona iqtisodiga ta’siri. Raqobatchilar to‘g‘risida ma’lumot olish uslublari. Korxona tijorat sirini himoya qilish.

IV. Amaliy, seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy, seminar, tajriba mashg‘ulotlarini tashkil etishda “Korxona iqtisodiyoti” fanining xususiyatlarini, shuningdek har bir talabaning shu fan mavzularini o‘zlashtirish darajasini hisobga olgan holda quyidagilardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni adabiyotlar yordamida mustaqil o‘zlashtirish;
- amaliy mashg‘ulot (seminar)larga tayyorgarlik ko‘rish;
- berilgan mavzu bo‘yicha referat tayyorlash, uni rasmiylashtirish va seminar darslarida prezentatsiya qilish.

Mavzularning nazariy asoslarini mustaqil ravishda o‘rganish va amaliyotga tadbiq etish esa malakaviy bitiruv ishini bajarishda amalga oshiriladi.

V. Fan bo’yicha kurs ishi (loyihasi) bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar

Kurs ishi fan mavzulariga taaluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Kurs ishining hajmi, rasmiylashtirish shakli, baholash mezonlari ishchi fan dasturida va tegishli kafedra tomonidan belgilanadi. Kurs ishini bajarish talabalarda fanga oid bilim, ko’nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Kurs ishi uchun tahminiy mavzular:

1. 2017-2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi.
2. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida korxonada aylanma malag’lardan samarali foydalanishning asosiy yo’nalishlari.
3. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash yo’llari va rivojlantirish tadbirlari.
4. Korxonada mehnatga haq to’lahni tashkil etish va takomillashtirish.
5. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda kichik va yirik korxonalar kooperatsiyasini tashkil etishning asosiy yo’nalishlari
6. Korxonaning tijorat siri va iqtisodiy xavfsizligi
7. Korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish samaradorligi.
8. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonasi rentabelligini oshirishning asosiy omillari.
9. Islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida korxonada foydani shakllantirish va undan samarali foydalanish yo’llari
10. Sanoat korxonasida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish imkoniyatlari va yo’llari.
11. Investitsion loyihani baholash usullari
12. Korxonaning investitsion loyihasini baholash (korxona misolida)
13. Korxonaning real investitsiyalarini boshqarish
14. Xorij investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar faoliyati (korxona misolida)
15. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarida investitsion fasoliyat

VI. Mustaqil ta’lim va ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ishni tashkil etishda "Korxona iqtisodiyoti” fanining xususiyatlarini, shuningdek har bir talabaning shu fan mavzularini o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi: ayrim nazariy mavzularni adabiyotlar yordamida mustaqil o‘zlashtirish; amaliy mashg‘ulot (seminar)larga tayyorgarlik ko‘rish; berilgan mavzu bo‘yicha referat tayyorlash, uni rasmiylashtirish va seminar darslarida prezentatsiya qilish. Mavzularning nazariy asoslarini mustaqil ravishda o‘rganish va amaliyotga tadbiq etish esa malakaviy bitiruv ishini bajarishda amalga oshiriladi. Mustaqil ish sifatida “Korxona iqtisodiyoti” fanini iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini o‘rganish lozim.

Mustaqil ishni tashkil etishda “Korxona iqtisodiyoti” fanining xususiyatlarini, shuningdek har bir talabaning shu fan mavzularini o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni adabiyotlar yordamida mustaqil o‘zlashtirish;
- amaliy mashg‘ulot (seminar)larga tayyorgarlik ko‘rish;
- berilgan mavzu bo‘yicha referat tayyorlash, uni rasmiylashtirish va seminar darslarida prezentatsiya qilish.

Informatsion-uslubiy ko‘rsatma

Iqtisodiy fanlarni o‘qitish jarayonida ilg‘or hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari; aniqlashtirilgan maqsadli differensial texnologiya asosida iqtisodiy fanlarni o‘qitish mazmuni; iqtisodiy fanlarni o‘qitishda ko‘rgazmali qurol va texnik vositalardan foydalanish omillari; oliy ta’lim tizimida zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatliligini ko‘rib chiqiladi.

Asosiy darslik va o‘quv qo‘llanmalar hamda qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxati

Asosiy adabiyotlar

1. R.S. Muratov, I.A. Djalalova, S.Sh. Oripov. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2014, – 424 bet.
2. B.A. Adukarimov va boshq. Korxona iqtisodiyoti. Darslik. – T.: «Fan va texnologiya», 2013, – 368 bet.
3. Волкова О.И., Девяткина О.В. Экономика предприятия. Учебное пособие. - М.: ИНФРА-М, 2008. – 601 стр.
4. Горфинкеля В.Я., проф. Швандара В.А. Экономика предприятия. Учебной пособие. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008, – 718 стр.
5. Грузинов В.П. Экономика предприятия. Учебник. 2-издание. Учебное пособие. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008, - 295 стр.
6. Кантор Е.Л, и др. Экономика предприятии. Учебное пособие. – СП.: Питер, 2009. – 224 стр

7. Maxmudov E.X. Korxona iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2005, – 170 bet.
8. Экономика предприятия (организации): Учебник / О. В. Баскакова, Л. Ф. Сейко. — М.: Издательско-торговая корпорация "Дашков и К°", 2013. — 372 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining «Raqobat to'g'risida»gi Qonuni. www.Lex.uz
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
3. Бухалков М.И. Организация производства на предприятиях машиностроения. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2010. – 511 стр.
4. Просветов Г.И. Экономика предприятия: задачи и решения. Учеб. практическое пособ. Учебное пособие. – М.: «Альфа-Пресс», 2009. – 560 стр.
5. Экономика предприятия (организации) [Электронный ресурс] : учебное пособие. – Эл. изд. - Электрон. текстовые дан. (1 файл pdf: 501 с.). - Нижний Новгород: НОО "Профессиональная наука", 2018. – Режим доступа http://scipro.ru/conf/enterpriseeconomy.pdf. Сист. требования: Adobe Reader; экран 10'.

Internet saytlari

1. www.mineconomy.uz (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi)
2. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
3. www.stat.uz (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi)
4. www.ima.uz (O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi)
5. www.academy.uz (Fanlar akademiyasi).